

12-10-2019

## INTERPRETATION OF POETONIMS IN THE NOVEL BY JOHANN WOLFGANG GOETHE "THE SUFFERINGS OF YOUNG WERTHER"

Rufina Sharopovna Bozorova  
*Namangan State University Teacher*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Bozorova, Rufina Sharopovna (2019) "INTERPRETATION OF POETONIMS IN THE NOVEL BY JOHANN WOLFGANG GOETHE "THE SUFFERINGS OF YOUNG WERTHER", *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 12 , Article 34.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss12/34>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

---

**INTERPRETATION OF POETONIMS IN THE NOVEL BY JOHANN WOLFGANG  
GOETHE “THE SUFFERINGS OF YOUNG WERTHER”**

**Cover Page Footnote**

???????

**Erratum**

???????

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2019 йил 12 сон**

**JOHANN WOLFGANG GYOTENING “YOSH VERTERNING IZTIROBLARI”  
ROMANIDA POETONIMLAR TALQINI**

Bozorova Rufina Sharopovna

Namangan davlat universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti Fakultetlararo chet tillar  
kafedrasi o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada poetonimlarning badiiy asarda tutgan o'rni, ularning “Yosh Verterning iztiroblari” romanidagi talqini o'z ifodasini topgan. Romanda qo'llanilgan har bir poetonimning tahlili aks ettirilgan.*

***Kalit so'zlar:** poetonim, personaj, antroponim, jahon adabiyoti, onomastika, protonim, prototip.*

**ИНТЕРПРИТАЦИЯ ПОЭТОНИМОВ В РОМАНЕ ИОГАНА ВОЛЬФГАНГА ГЁТЕ  
“СТРАДАНИЯ МОЛОДОГО ВЕРТЕРА”**

Базарова Руфина Шароповна

Наманганский государственный университет  
Учитель

***Аннотация.** В этой статье выражается роль поэтонимов в художественной литературе и их интерпритация в романе “Страдания молодого Вертера”. Также отражается анализ каждого поетонима использованного в романе.*

***Ключевые слова:** поэтоним, персонаж, антропоним, мировая литература, ономастика, протоним, прототип.*

**INTERPRETATION OF POETONIMS IN THE NOVEL BY JOHANN WOLFGANG  
GOETHE “THE SUFFERINGS OF YOUNG WERTHER”**

Bozorova Rufina Sharopovna

Namangan State University  
Teacher

***Abstract:** In this article is expressed the role of poetonims in fiction and their interpretation in the novel “The sufferings of young Werther”. The analysis of each poetonym used in the novel is also reflected.*

***Keywords:** poetonim, personage, anthroponim, world literature, onomastics, protonym, prototype.*

Badiiy adabiyotda badiiy obraz (jonli yoki jonsiz)ni jonlantirishda ismlar atamalari yoki atoqli otlardan samarali foydalanilgan. Badiiy matnlarda bosh qahramon ismi, adabiy personaj ismi, personaj ismi, joy nomlari, asar nomlari, ma'lum davr nomlari atoqli otlar bilan nomlanadi. Xususan rus tilshunos olimi A.Nikonov “Personaj ismi–badiiy obrazni yaratuvchi vositalardan biri bo'lib, u personajning ijtimoiy mansubligini, milliy va mahalliy koloriti (o'ziga xos belgisi)ni xarakterlaydi, agar voqealar o'tmishda sodir

bo'lgan bo'lsa tarixiy haqiqatni yaratishi mumkin"–deb ta'kidlaydi [1]. Ushbu fikrda, asosan badiiy asardagi atoqli otlar va ijtimoiy sharoitlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratilgan, badiiy matn tuzilishidagi spetsifika esa mustaqil birlik sifatida ifodalangan.

Poetonim-(yunoncha) "she'riy san'at" va "ism"-adabiy asarda qo'llaniladigan har qanday atoqli ot. Poetonimning ma'no maydoni faqatgina kontekstlarda namoyon bo'ladi, poetonim esa badiiy matnning yopiq dunyosidir.

Uzoq yillar davomida badiiy matnda atoqli otlarni belgilashda adabiy antropoetim asosiy termin bo'lib hisoblangan. (Antropoetim (yunoncha "odam" va poetonim)–badiiy asarda tilga olingan lirik qahramon, personaj, hikoya sub'yektining ismi).

O'z davrida tilshunoslar adabiy antropoetim deganda faqatgina muallif tomonidan yaratilgan atoqli otlarni tushunishgan. Badiiy asarlarda personajlarning nomlari sifatida ishlatilgan aniq tarixiy shaxslarning atoqli otlari bundan mustasno bo'lgan. Keyinchalik badiiy obrazlarni jonlantirishda barcha atoqli otlarni adabiy antropoetimlar deb nomlashgan. Badiiy matnni tahlil qilishda toponim va zoonimlar "adabiy toponim", "adabiy zoonim" deb nomlay boshlangan. Badiiy asardagi atoqli otlarning barcha bo'limlariga mos keluvchi universal termin tanlash zarur bo'lgan. Poetik onomastika uchun bunday termin poetonim hisoblangan. Bunday terminni adabiyotshunoslar shartli ekzotik, mifologik atoqli otlarni aniqlashda qo'llashgan. Poetik onomastika uchun poetonim terminining mazmun mohiyatini kengaytirish talab etilgan. "Onomastik terminologiya lug'ati" da uning quyidagi ma'nolari beriladi: poetik ism (poetonim)-stilistik va ideologik vazifasini xarakterlovchi xususiyatga ega badiiy adabiyotdagi ismdir. Qoida bo'yicha, o'ylab topilgan ismlar toifasiga kiradi, ammo odatda yozuvchilar tomonidan aniq mavjud bo'lgan ismlar qo'llaniladi[2].

Jahon adabiyotining buyuk namoyandasi Yohann Volfgang Gyote insoniyat badiiy tafakkurining eng yorqin vakillaridan biri, Yevropa Uyg'onish davrining so'nggi yirik siymolaridan hisoblanadi. Gyote adabiy merosidagi har bir she'riy, nasriy, dramatik, ilmiy asar daho ijodkor tafakkurining ko'plab qirralarini namoyon etadi. Uning asarlarida hayoti davomidagi kuzatishlari, quvonchu iztiroblari, hayajoni, ruhiy tushkunliklari, baxt va baxtsizliklari, yorug' olam va insoniyat taqdiri borasidagi o'y-mulohazalari, qomusiy bilimi, cheksiz-chegarasiz zakovati o'z ifodasini topgan [3]. Gyote ijodining badiiy olamida Sharq mumtoz adiblari ijodiyoti singari poetonimlar katta o'rin tutadi.

Yohann Volfgang Gyotening o'zbek tarjimoni Yanglish Egamova tomonidan tarjima qilingan "Yosh Verterning iztiroblari" romanini mutolaa qilar ekansiz unda poetonimlarning bir necha turlari qo'llanilganligiga guvoh bo'lasiz. "Shundoqqina shahar chetida bir buloq bor, bu buloqqa men xuddi Meluzina va uning singillari singari bog'lanib qolganman".Meluzina–farang afsonasidagi yarim ayol, yarim baliq shaklidagi suv parisi [4]. Demak "Meluzina"ushbu asardagi *mifopoetonim*dir. (Mifopoetonim (yunoncha "rivoyat, "afsona" va poetonim)–antropoetimning bir turi bo'lib, asar matnida afsonalar personajlari, ya'ni xudolar, qahramonlar va jangchilar ismlari hisoblanad).

Muallifning izohlashicha, joylarning haqiqiy nomlari o'zgartirib berilgan. Jumladan, "Valdgeym" mualliflik poetonimi. "Shahardan taxminan bir soatlik masofa

narida Valdgeym degan manzil bor” deyilgan asarda, ammo bu nom o’zgartirib berilgan[5]. Demak bu tarjimonning prototipi deyishimiz mumkin. (Mualliflik poetonimi-rasmiy jihatdan aniq onomastikonga mos bo’lmagan poetonim). Bunda ismni tanlaydigan muallifning prototipi bo’lishi mumkin.

“Men o’z stol-stulimni o’sha daraxt ostiga chiqartiramanda, shu yerda o’tirib qahva ichaman hamda Gomerni mutolaa qilaman”[6]. Gomer - *protonim*, ya’ni poetonimni tanlash uchun asos sifatida xizmat qilgan aniq mavjud bo’lgan shaxs ismi keltirilgan. (Protonim-(yunoncha “birinchi” va “ism”) – poetonimni tanlash uchun asos sifatida xizmat qilgan aniq mavjud bo’lgan shaxs ismi).

Ushbu asarni mutolaa qilish jarayonida bir qancha *urbopoetonim*larni ham uchratish mumkin: “Ayol bilan qilgan suhbatimdan ayon bo’lishicha, u o’qituvchining qizi ekan, eri esa marhum amakisidan qolgan merosni undirish uchun Shveysariyaga ketipdi”[7].

“Yoshligimda, ayniqsa, roman o’qishni yaxshi ko’rardim,-deydi u,-yakshanba kunlari bir burchakka o’tirib olib, qandaydir miss Jenni quvonchi va iztiroblariga sherik bo’lish menga nechog’lik huzur baxsh etganligiga birgina Xudoning o’zi shohid”[8]. Bu parchada Miss Jenni deganda nemis yozuvchisi Gerbesning “Miss Fanni Vilkes tarixi” kitobining qahramoni nazarda tutilgan. “Lotta deraza tokchasiga tirsagi bilan suyangancha atrofni kuzatardi, u avval osmonga, so’ngra menga qaradi, ko’zlari jiqqa yosh edi; qo’lini mening qo’lim ustiga qo’ydi: “Klopshtok”- dedi”. Klopshtok (1724-1803)–Gyotening yoshlik yillarida ancha mashhur bo’lgan olmon shoiri. Uning “Bahor bayrami” qasidasiga ishora qilinyapti”[9]. Demak ushbu parchalardagi “Miss Jenni” va “Klopshtok”–*protonimlar* bo’lib hisoblanadi. (Protonim-(yunoncha “birinchi” va “ism”)–poetonimni tanlash uchun asos sifatida xizmat qilgan aniq mavjud bo’lgan shaxs ismi).

“Bu hol u qadar uzoq cho’zilmadi, chunki Lotta gap orasida “Vekfild ruhoniysi” haqida ochiqdan ochiq gapirganida chidab turolmadim va ko’nglimdan nima kechgan bo’lsa, hammasini to’kib soldim”[10]. Guvohi bo’lganimizdek “Vekfild ruhoniysi” bu parchadagi *bibliopoetonim*dir. (Bibliopoetonim-(yunoncha “kitob” va poetonim) badiiy matndagi adabiy asar yoki kitob nomi).

Asarni mutolaa qilish jarayonida ko’plab *antropoetonim*larni uchratish mumkin. (Antropoetonim (yunoncha “odam” va poetonim)–badiiy asarda tilga olingan lirik qahramon, personaj, hikoya sub’yektining ismi).Jumladan: Vilgelm, Lotta, Odran, Frederika, Shmidt, Malxen, Lotxen, Marianna v.h.

Asarni o’qir ekanmiz bir necha *xronopoetonim*larga ham duch kelamiz: “Patriarxal turmushga xos belgilarni kundalik shaxsiy hayotimga osongina singdirish mumkinligidan o’zga hech narsa menga bunchalik tinchlik va osudalik baxsh etolmaydi”[11]. Ko’rinib turganidek “Patriarxal” ushbu parchadagi *xronopoetonim* hisoblanadi. (Xronopoetonim (yunoncha “vaqt” va poetonim)–badiiy asarda ishlatilgan tarixdagi bosqich yoki voqealarning haqiqiy nomi).

“Yaqinda mendan birov: Ossian senga yoqadimi?” deb soradi”. Bu jumladagi “Ossian” deganda 1760 yilda shotland shoiri Makferson she’rlarini to’plab “Ossian qo’shiqlari” nomi bilan nashr ettirgan she’riy to’plam nazarda tutilyapti” [12]. “Buning yonida yana mittigina kitobcha bor edi, bulardan biri Gomerning kichkina Vetshtayn nashri bo’lib, sayr paytida haddan ziyod katta Ernesti nashrini ko’tarib yurmaslik uchun

uni anchadan buyon qidirib yurgan edim” [13]. Guvohi bo’lganimizdek romanning ushbu jumlasidagi “Ossian qo’shiqlari”, “Vetshtayn nashri” va “Ernesti nashri” - *bibliopoetonim*lardir. (Bibliopoetonim (yunoncha “kitob” va poetonim) badiiy matndagi adabiy asar yoki kitob nomi).

Ushbu asarda shuningdek ba’zi *ergopoetonim*larni ham uchratish mumkin. Jumladan: “Ruhoniy hamda Fariseylarga o’xshab, sizlarni ham shulardek qilib yaratmagani uchun Xudoga shukur qilasizlar”[14]. Farisey-qadimgi Iudiyada shahar boylari o’rtasida tuzilgan diniy-siyosiy tashkilot a’zosi.(Ergopoetonim (yunoncha “ish” va poetonim) - badiiy asarda tilga olingan odamlar birlashuvining nomi).

#### References:

- 1.Nikonov V.A. M., 1974.
- 2.Yohann Peter Ekkerman “Gyote bilan gurunglar” Ya.Egamova tarjimasi 2016 yil.
- 3.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-Toshkent-2018.
- 4.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 5.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 6.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 7.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 8.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 9.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 10.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 11.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 12.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 13.Yohann Volfgang Gyote “Yosh Verterning sarguzashtlari” Ya.Egamova tarjimasi, “O’qituvchi” NMIU, Toshkent-2018.
- 14.<http://imja.name/poetonim/termin-poethonim.shtml>

## МУНДАРИЖА

### ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00

#### ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

#### PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

- 1 Visual c# da razryadli operatsiyalar.  
Temirov O.M..... 3
- 2 Java dasturlash tilida abstrakt sinflar  
Holmirzayev H.E..... 6
- 3 Ўнг томони номаълум ва коэффициенти узулишга эга бўлган биринчи тартибли  
чизиқли оддий дифференциал тенглама учун масалалар  
Тиллабаева Г.И..... 10
- 4 Matematika darslarida muammoli ta'lim  
Alixanov O.O..... 15
- 5 О некоторых задачах теории одномерной бифуркации  
Тухтасинов М,Кушақов Х.Ш ..... 20

### КИМЁ ФАНЛАРИ

02.00.00

#### ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

#### CHEMICAL SCIENCES

- 6 Карбоксиметилцеллюлоза: олиниши, айрим физик – кимёвий хоссалари,  
ишлатилиши (обзор)  
Сайпиев Т.С..... 27
- 7 N-vinilpirrolidon asosida suvda eruvchan sopolimerlar sintez qilish va ular  
makromolekulalarining kompozitsion tuzilishini o'rganish  
Toshmatov Y.R., Dexqonov R.S.,Boydedayev. A.A..... 39

### БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

03.00.00

#### БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

#### BIOLOGICAL SCIENCES

- 8 Far1 Related Sequence (FRS) генлар оилас ининг вакили frs10 гени g.hirsutum  
туридаги функсиясини рнки технологияси ёрдамида ўрганиш.  
Усманов Д.Э, Буриев З.Т, Абдукаримов Ш.С, Собиров Б.М, Мухторов А. Т..... 46
- 9 Кўхитанг тизмаси флораси таркибидаги ziziphora l. туркуми турларининг  
биоэкологияси  
Ибрагимов А.Ж,Батошов А.Р,Каримов Б.А,Мирзаев С.И ..... 50

### ТЕХНИКА ФАНЛАРИ

05.00.00

#### ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

#### TECHNICAL SCIENCES

- 10 Интернет самарали коммуникация канали сифатида  
Бекназаров К.Т..... 54

### ТАРИХ ФАНЛАРИ

07.00.00

#### ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ

#### HISTORICAL SCIENCES



11	XX asrning 60-80-yillarida namangan viloyati xalq ta'limi tizimi: muammolar va yutuqlar Mamasaidov L. P.....	60
<b>ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>		
<b>09.00.00 ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ</b>		
<b>PHILOSOPHICAL SCIENCES</b>		
12	Tarixiy taraqqiyotda ayollarning o'rnini Mamatov O.V.....	64
13	Миллий байрамларда санъат турларининг ифодаси Шадиметова Г.М .....	67
14	Замонавий санъатларда янги эстетик мезонларнинг вужудга келиши Кадирова Д.С.....	72
15	Мақом куйларининг фалсафий-эстетик моҳияти Нуруллаева З.С.....	78
16	Ахборот медиамаданияти трансформацияси ва глобаллашуви Кодиров Н.М.....	83
17	Ренессанс даври мутафаккирлари оилавий муносабатларда поклик ва гўзаллик ҳақида Хандамова М.....	93
18	Полифункционаллик халқ қабулхоналарининг ўзига хос хусусияти сифатида Айтбоев М.Ю.....	99
19	Оиланинг жамиятдаги роли ва ижтимоий функциялари Абдуллаева Н.....	103
20	Инновация фалсафасининг ижтимоий функционал хусусиятлари Ходжаев С.Б.....	108
21	Боҳарзий ва унинг вақф ерлари Норова М.Ф .....	113
22	Туркистон “Янги усул” мактабларида таълим жараёнининг ташкил этилиши ва ундаги гендер муаммолари Намазова Ю.М.....	121
23	Аҳмад Заки Валидийнинг тарих фалсафаси Хужаев М.И.....	126
<b>ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>		
<b>10.00.00 ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>		
<b>PHILOLOGICAL SCIENCES</b>		
24	The Role of stylistics in linguistics and literature Umrzaqov I. I.....	133
25	Девону Луғотит Турк” асарида қўлланган шахс номлари гуруҳига оид лексемаларнинг семантик хусусиятлари Розикова Г.З.....	136
26	О‘zbek tiliga o‘zlashgan arabcha leksemalar va ularning badiiy asarlarda qo‘llanilishi Rahmatullayev.Y.....	142
27	Замонавий таълим тизимида касбий компетентликни модуллаштиришмоҳияти	

Абдиева С.М.....	146
28 Qo'shma gaplarda shakl va mazmun Ahmedova N.Sh.....	151
29 Краткий обзор по историю изучения терминов родства в узбекских и английских языках Каримова В.....	156
30 O'zbek adabiy tili uslublarining shakllanishi Vabaxanova D.A.....	163
31 Йўл мотиви ҳақида Қўчқаров О.....	169
32 Жаҳон тилшунослигида диний функционал услубнинг ўрганилиши Юсупова Ш.Т.....	173
33 Жек лондоннинг исёнчи асаридаги воқеаликни тасвирлаш хусусиятлари Najmiddinov J, Bahodirov A.....	179
34 Johann Wolfgang Gytoring "Yosh Verterning iztiroblari" romanida poetonimlar talqini Vozorova R.Sh.....	182
35 "Алпомиш" библионими ва бош тимсол исми, лақаби хусусида Улуқов Н, Юнусова Б.....	186
36 Наманган қипчоқ шевалари ва этнослараро жараёнлар Дарвишов И.Ў.....	190
37 Grammatik ko'rsatkichlarning o'zlashtirilishida aniqlik darajasi (O'zbek tilini o'rganayotgan koreyslar misolida) Saidaxmedova O.I.....	197
38 Перевод понятий означающие национальных конвенций, традиций и обряд Самандаров . Ш.С.....	202
39 Принцип вежливости в речевом общении. Саидова М.Ш, Холматова Г.И.....	205
40 Адабиёт ва прагматика Раҳимов У.Э, Махаммаджлонов Н.Д.....	209
41 Хикматли сўзлар таржимасида қофияни сақлаш Абдуллажанов А, Мамадалиев Э.....	214
<b>ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<b>11.00.00 ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>	
<b>GEOGRAPHICAL SCIENCES</b>	
42 Фарғона водийси дарёлари оқимининг иқлим илишига реакцияси Солиев И.Р., Ғулломжонов Д.....	219
<b>ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<b>13.00.00 ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>	
<b>PEDAGOGICAL SCIENCES</b>	
43 Готовность будищих педогогов как основной фактор успешности инклюзивного образования Сатторов М, А.....	225

44	Педагогик стратегия - олий таълим муассасаси битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг концептуал асоси Эргашев Б.Б.....	229
45	Таълимда ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланиш афзалликлари Ниязова Н.А.....	234
46	Олий таълим муассасалари ўқув-тарбия жараёнида фанларичра ва фанлараро интеграциясини таъминлашнинг педагогик-психологик масалалари Жуманов А.А.....	237
47	Мактабгача таълим ташкилотларини инновацион ривожлантириш муаммолари Абдуназарова Н.Ф, Хамдамова М.Т, Парманов Ж.А.....	242
48	Физика ўқитувчиларининг таълимга инновацион ёндашуви Бекназаров З.Ф.....	245
49	Тухника йўналишиндаги мутахассис компетентлигининг модели Даминов О.О.....	250
50	Олий таълим муассасаларида замонавий инновацион технологияларини қўллашнинг ўзига хослиги ва хусусиятлари Исмаилова З.К, Химматалиев Д.О.....	257
51	To actual directions of development of export of fruit and vegetable products in Uzbekistan Avulchaeva F.....	261
52	The significance of cultural awareness in second language learners' classroom Umirzakova D.A.....	264
53	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yo'llari Jo'rayeva T.U, Shamirova Y.K .....	268
54	Role of peer observation in foreign language teaching Jalolov Sherali, Botirova Z.X.....	274
55	Ingliz tilni o'rgatishda mnemonik usullardan foydalanish Yunusova Y.B.....	278
56	Талаба ёшлар соғлом турмуш тарзини шакллантириш масаласига қадрият сифатида қарашни тарбиялаш муаммолари Назаров А.Т.....	281
57	“Олий таълим муассасалари ўқув–жисмоний машғулотлар жараёнини ташкиллаштиришда blended learning концепциясидан фойдаланиш орқали таълим сифатини ошириш” Махкамов А.Ю.....	284
58	Ўқувчиларнинг геометриядан ўқув фаолиятини фузионизм ғояси асосида такомиллаштириш йўллари Ғойибназарова Г.Н, Джураева Ш.К.....	288
59	Мактабгача таълим муассасаларини сифат жиҳатдан такомиллаштириш Ибрагимова Г.Н.....	293
60	8-синф физика курсининг “электр заряд. электр майдон” бобини ўқитиш Зоҳидов И.О, Каримова Р.К, Умаров А.О.....	298

61	Таркибида сирт фаол модда тутган учкарбамид хлорат натрий дефолиантини олиш жараёнини ўрганиш Умиров Ф.Э, Худойбердиев Ф.И, Номозова Г.Р, Закиров Б.С.....	303
62	Ижтимоий-эмоционал кўникмалар шаклланишининг педагогик-психологик омиллари Раҳимова М.А.....	311
63	Ҳамкорлик педагогикасининг узлуксиз таълим тизимидаги инсонпарварлашув хусусиятлари Ўринова Ф.Ў, Усмонова Ш.Ё.....	317
64	Чақириққача ҳарбий таълим бўйича мутахассисларни шакллантиришнинг долзарб масалалари Хасанов А.Т, Юсупов Т.Т.....	323
65	Мобиллик-олий педагогик таълимни модернизация қилиш сифатида Эшназарова М.Ю.....	327
66	Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларида касбий муҳим сифатларни шакллантириш педагогик жиҳатлари Қодиров М.М.....	332
67	Бошланғич таълимда прагматик ёндашув асосида матн ўқишнинг ўзига хос хусусиятлари Йўлдашева Д, Буважонова М.....	338
68	Бошланғич таълимда интеграциялашган ўқитишнинг аҳамияти Рустамова Д.....	341
69	Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларни нутқ маданиятини шакллантиришда китоб ва унинг аҳамияти Ўринова Ф, Сидикова З.....	344
70	Технология использование метода кейс-стади при изучении компьютерной графики. Отабаева Ф.Т.....	348
71	Pedagogik tajribalarni to'plash va ommalashtirish tizimi Mo'minova G, Insarova G,.....	355
72	Талабаларнинг мустақил таълим фаолиятини ривожлантириш- ўқув жараёнининг асоси Мўминов З.О.....	359
73	Innovatsiya ta'limning muhim elementidir. Madaminov F.Sh.....	367
74	Intellektual kompyuter o'yinlari yordamida individual matematik ta'limni yo'lga qo'yish Najmiddinova . N.Y.....	373
75	Футболчиларни эмоционал ҳолатларини аниқлашнинг методик хусусиятлари Сатиев Ш.К .....	378
76	Бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш моделини такомиллаштириш. Қамбаров М.М .....	384

77	Содержание и структура учебников по методике обучения языкам Габдулхаков, Фарид Ахунович.....	391
	<b>ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b> <b>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b> <b>PSYCHOLOGICAL SCIENCES</b>	
	<b>19.00.00</b>	
78	Оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатларини шакллантириш омиллари Ортиқова З.Н.....	395
	<b>СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b> <b>СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b> <b>SOCIOLOGICAL SCIENCES</b>	
	<b>22.00.00</b>	
79	Маънавий тарбия ва тарихий онг Махкамов Қ.О.....	398